

4-sinf savollari

- 1 (3.1 ball) Rasmga ko'ra beshburchakning qiymatini toping.







$$\begin{aligned} \square &= 24 & \triangle &= 18 \\ \bigcirc + \bigcirc + \bigcirc &= \square \\ \bigcirc - \bigcirc &= \triangle \end{aligned}$$

- A) 10 B) 18 C) 26 D) 20

- 2 (3.1 ball) 24000 so'm pulning barchasiga faqat pomidor sotib olmoqchi bo'lsangiz 2 kg, faqat bodring sotib olmoqchi bo'lsangiz 3 kg olishingiz mumkin. 1 kg pomidor va 1 kg bodring narxlari farqini toping(so'm).

- A) 2000 B) 3000 C) 3500 D) 4000

- 3 (3.1 ball) Quyida berilgan ikkita jism 3 ta birlik kublardan tashkil topgan. Bu ikki jism yordamida javoblarda berilganlardan qaysi birini hosil qilib bo'lmaydi?



- 4 (3.1 ball) Quyidagi qog'oz bo'laklarini yonma yon qo'yib dengiz toshbaqasining tug'ilgan yilini va vafot etgan yillarini hosil qilish mumkin. Bu dengiz toshbaqasi necha yil yashagan?



- A) 198 B) 202 C) 102 D) 63

- 5 (3.1 ball) Sardorda rasmdagidek 2 ta qog'oz bo'laklari bor. U quyida berilgan shakllarning nechtasini bu ikki qog'oz bo'laklarini birlashtirish orqali hosil qilishi mumkin? Shakllarni aylantirish mumkin, lekin teskari tomonga o'girish mumkin emas.




- A) 1 B) 2 C) 3 D) 4


- 6 (4.2 ball) 2 kilogramm baliq go'shtining narxi qo'y go'shti narxining $\frac{1}{3}$ qismiga teng. Agar 3 kilogramm baliq go'shti va 1 kilogramm qo'y go'shtining birgalikdagi narxi 27\$ bo'lsa, 1 kilogramm baliq go'shtining narxini toping.

- A) 2\$ B) 3\$ C) 4\$ D) 18\$

- 7 (4.2 ball) Rasmdagi shaklning berilgan chiziqqa nisbatan simmetrigini toping.



?




- 8 (4.2 ball) Soat 11:00 da A shahardan B shaharga qarab mashina 80 km/soat tezlik bilan yo'lga chiqdi. Soat 13:30 bo'lganida mashina yo'lning $\frac{2}{3}$ qismini bosib o'tgan bo'lsa, u yana qancha masofa yursa manziliga yetib boradi?

- A) 400 km B) 100 km C) 300 km D) 120 km

4-sinf savollari


- 9 (4.2 ball) Quyida berilgan doiralar ichiga natural sonlar yozilgan. Shakldagi ba'zi doiralar yo'nalishlar bilan bog'langan. Bunda, ixtiyoriy qizil yo'nalishning boshida turgan doiradagi son shu yo'nalishning oxirida turgan doiradagi sondan 1 ga kichik ekanligini, yashil yo'nalishning boshida turgan doiradagi son shu yo'nalishning oxirida turgan doiradagi sondan 2 ga kichik ekanligini anglatadi. Sariq va ko'k rangli doiralar ichiga yozilgan sonlar farqini toping.

Izoh: Rasmda berilgan qora rangli yo'nalishning A uchi uning boshi, B uchi esa uning oxiri bo'ladi.



- A) 3 B) 2 C) 1 D) 5


- 10 (4.2 ball) Kvadrat shaklidagi qog'oz quyida berilgan rasmdagidek 2 marta buklandi. Shundan so'ng bu qog'oz 1, 2, 3, 4 chiziqlarning qaysilari bo'ylab qirqilsa aynan 3 ta bo'lakka bo'linadi?



- A) 1 va 2 B) 2 va 4 C) 1 va 3 D) 1, 2 va 3

- 11 (5.3 ball) A uchburchakda turgan chigirtka har qadamda bir uchburchakdan unga qo'shni uchburchakka sakrab o'tadi. Chigirtka orqaga qaytmaslik sharti bilan necha xil usulda B uchburchakka borishi mumkin?

Agar uchburchaklar umumiy tomonga ega bo'lsa, ular qo'shni uchburchaklar hisoblanadi.



A) 8 B) 12 C) 16 D) 32

- 12** (5.3 ball) Abbas 12 yoshidan boshlab ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni boshladi. U bir kunda ijtimoiy tarmoqlaridan o'rtacha 50 ta video ko'radi. Ko'radigan videolarining barchasi 1 daqiqadan iborat. Shuningdek, bu videolarning $\frac{9}{10}$ qismi Abbas uchun foydasiz bo'lgan videolarni tashkil etadi. Agar Abbas 76 yil umr ko'rsa, vafot etgunicha ijtimoiy tarmoqlarda foydasiz videolarga sarflaydigan vaqti hammasi bo'lib necha yilga teng bo'ladi? 1 yilni 365 kun deb hisoblang.
A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

- 13** (5.3 ball) Ketma-ket natural sonlar ma'lum qonuniyat asosida quyidagi jadvalga yozilmoqda. Jadvalning 10-qatoridagi sonlar yig'indisini toping.

1	2	6	8
3	4	5	7
9	10	14	16
11	12	13	15

... ...

- A) 145 B) 146 C) 147 D) 148
- 14** (5.3 ball) Perimetrlari 32 va 40 ga teng bo'lgan ikkita to'g'ri to'rtburchaklarni birlashtirib kvadrat hosil qilish mumkin. Bunda to'g'ri to'rtburchaklarning hech qaysi sohasi ustma-ust tushmasligi kerak. Shu kvadratning tomonini toping.
A) 10 B) 12 C) 15 D) 16
- 15** (5.3 ball) Uchta ketma-ket natural son ko'paytmasidan 1 ga katta bo'lgan sonni "Tengsiz son" deb ataylik. Eng birinchi "tengsiz son" bu 7. Chunki $7 = 1 \cdot 2 \cdot 3 + 1$. Uch xonali "Tengsiz son"lar nechta?
A) 6 B) 5 C) 7 D) 8
- 16** (7.4 ball) 0, 1, 2, 3, ..., 9 raqamlarning ba'zilari rostg'oy qolganlari esa yolg'onchi. Bir kuni har bir raqam bittadan quyidagi gaplarni aytdi:
9 raqami: Oramizda mendan kichik yolg'onchilar soni 4 ta;
8 raqami: Oramizda mendan kichik yolg'onchilar soni 4 ta;
7 raqami: Oramizda mendan kichik yolg'onchilar soni 3 ta;
6 raqami: Oramizda mendan kichik yolg'onchilar soni 3 ta;
5 raqami: Oramizda mendan kichik yolg'onchilar soni 2 ta;
4 raqami: Oramizda mendan kichik yolg'onchilar soni 2 ta;
3 raqami: Oramizda mendan kichik yolg'onchilar soni 1 ta;
2 raqami: Oramizda mendan kichik yolg'onchilar soni 1 ta;
1 raqami: Oramizda mendan kichik yolg'onchilar yo'q;
0 raqami: Oramizda mendan kichik yolg'onchilar yo'q.


4-sinf savollari

Raqaamlardan nechitasi yolgʻonchi ekanligini aniqlang.

- 17 (7.4 ball) Nodir ukasi Nozim bilan basketbol oʻyiniga bordi. Ular oʻzlari yoqtirgan “IDCball” jamosiga muxlislik qilishdi. Nodir jamoa necha ball toʻplaganini, Nozim esa ular necha marta savatga toʻp tashlaganini hisoblab bordi. Oʻyin yakunida Nodirda 66, Nozimda esa 34 hosil boʻldi. Maʼlumki basketbol oʻyinida agar siz savatga toʻpni tushursangiz buning uchun 1 ball yoki 2 ball yoki 3 ballni qoʻlga kiritishingiz mumkin. Agar oʻsha oʻyindagi “IDCball” jamosining 3 ballik toʻp tashlashlar soni, 2 ballik toʻp tashlashlar sonidan 2 marta kam boʻlsa, ular necha marta 1 ballik toʻp tashlagan?
- 18 (7.4 ball) T , A , S va M turli raqamlar uchun quyida berilgan rebusni yeching va $T + A + S + M$ ning qiymatini toping.

$$\overline{TA} \cdot \overline{SA} = \overline{MMM}$$

- 19 (7.4 ball) Quyida berilgan shaklda tomoni 2 cm , 4 cm va 6 cm boʻlgan ikki kvadrat oʻzaro tonma-yon joylashtirilgan. Boʻyalgan shaklning yuzini toping (cm^2)



- 20 (7.4 ball) Quyidagi shakl bir nechta birlik kvadratlardan tashkil topgan. Baʼzi birlik kvadratlar sariq rangga boʻyalgan. Shunday toʻgʻri toʻrtburchaklar sonini toping, bunda uning yuzi kamida 2 kv birlik va sariq rangga boʻyalgan qismi oq rangga boʻyalgan qismidan kichik boʻlsin.

